



SHASHMAQOMNING NASR (ASHULA) BO'LIMI VA ULARNING TARKIBIY TUZLISHI

Qobulov Musulmonbek Xayrullo o'g'li

O'zbek milliy maqom san'ati markazining

Sirdaryo viloyati hududiy bo'limi

ansambli badiiy rahbari., qobulovmusulmonbek22@gmail.com

tell: + 998 99 464 05 22

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14997712>

ARTICLE INFO

Received: 27th February 2025

Accepted: 28th February 2025

Published: 10th March 2025

KEYWORDS

Ijrochilik, cholg'u, uslub, musiqa, meros, namud, aytim, nasr, ustoz – shogird, risola, ilm.

ABSTRACT

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, avloddan avlodga "ustoz-shogird" an'anasi oraqli meros bo'lib o'tib kelayotgan kasbiy musiqaning namunasidir. Ushbu maqolada Shashmaqomning nasr bo'limi va ularning tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Kirish

O'zbek xalqining qadimiy, o'ziga hos, serqatlam va usluban boy musiqa merosini to'plash, xujjatlashtirish, uning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish hamda amaliy, ijodiy o'zlashtirish borasida o'tgan yarim asrdan ziyodroq vaqt mobaynida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Keyingi yillarda o'lkamizda bu ishlarni izchil davom ettirish bilan bir qatorda yosh avlodni bu jabhalardan muntazam ravishta voqif qilib borish tinglovchilarning talab va ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga qaratilgan ma'sul vazifalar ko'ndalang bo'lib turibdi. Bu o'rinda avvalo madaniyat va san'at o'quv yurtlarida jahon xalqlari musiqa san'atining adabiyot va tarixini puxta o'rganish, ayniqsa o'zbek milliy va mahalliy badiiy an'analarini mufassal o'zlashtirish, musiqiy nazariy qonuniyatlarni chuqurroq idrok ettirish kabi muhim masalalar hamon dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, avloddan avlodga "ustoz-shogird" an'anasi oraqli meros bo'lib o'tib kelayotgan kasbiy musiqaning namunasidir. Kasbiy musiqaning shakllanishida "saroy madaniyati" muxim o'rin tutgan bo'lib, xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli musiqachilar xon saroylarida musiqachi bo'lib xizmat qilganlar. Shu davrdan boshlab kasbiy musiqa rivojlangan. Maqom san'ati bilan asosan kasbiy musiqachilar maxsus shug'ullanganlar. Maqomlar kasbiy musiqaning eng salmoqli va murakkab qismini tashkil etadi. Maqomlar shakl tuzilishi jihatidan juda salobatli san'at namunasidir. Shu bois o'tmishda yashab ijod etgan ko'pgina mutafakkir olimlar Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Sayfiddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abduraxmon Jomiy va boshqalar maqomlarga doir ilmiy risolalar yozganlar. Shu tariqa maqom ijrochiligi, ijodkorligi va maqom nazariyasi fani rivojlanib keldi.

Shashmaqom tizimiga kirgan har bir maqomning cholg'u bo'limi ijro etilganidan keyin uning ashula bo'limiga o'tiladi. Maqomlarning aytim (ashula) bo'limi umumiy nom bilan «Nasr» deb ataladi. «Nasr» – arabcha «ko'mak», «zafar», «g'alaba» demakdir¹.

¹ Ibrohimov O. Maqom asoslari. Toshkent. 2018.54-bet

Shashmaqomning ashula bo'limida, bir necha sho'balalar mavjud. Bu sho'balarni ikki qismga (guruh)ga ajratiladi. Nasr bo'limidagi birinchi guruhga kirgan sho'balalar - Saraxbor, Talqin, Nasr va Ufarlardir. Saraxbor, Nasr va Talqinlar o'zidan keyin ijro etiladigan taronalarga ega. Ashula bo'limining ikkinchi guruhiga kirgan sho'balalar - Savt, Mo'g'ulchalar turli maqomlarning o'ziga xos bo'lgan ba'zi ashula yo'llari kiradi. Ikkinchi qismga kirgan sho'balarning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar deb ataladigan shaxobchalari bo'lib, Savt va Mo'g'ulcha kabilar o'zining shu shaxobchalari bilan birin-ketin yaxlit ijro etiladi. Birinchi va ikkinchi qismni tashkil etgan sho'balalar, dastlab, o'zining tarkibiga kirgan shaxobchalari (tarona yoki talqincha, qashqarcha va boshqalari) bilan farqlanadi. Ularning yana bir xususiyati shuki, birinchi qismga kirgan sho'balalar guruhi birin-ketin yaxlit ijro etilgan bo'lsa, ikkinchi qismga kirgan Savt, Mo'g'ulchalar o'z shaxobchalari bilan birga alohida-alohida aytilgan, ya'ni Savtning ketidan Mo'g'ulchalar ijro etilmaydi. Birinchi qismni tashkil etgan Saraxbor, Nasr, Talqin, Ufarlar Shashmaqom ashula bo'limining asosiy ashula yo'llaridan hisoblanadi. Savt, Mo'g'ulcha kabi sho'balalar esa Shashmaqom shakllanishi natijasida yaratilgan. Amir Nasrulloxon davri (X IX asr o'rtalari)da ko'chirilgan va Shashmaqomga aytilgan she'rlarni o'z ichiga olgan to'plamda Savt nomi uchrasa xam Mo'g'ulcha nomi keltirilmagan. Shu bilan birga, Savtning shaxobchalari (Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma kabilar) nomi va ularga aytilgan she'r matnlari ham berilmaydi. Bundan o'sha davrlarda Mo'g'ulcha va ikkinchi qismga kirgan boshqa nomlar bilan ataluvchi sho'balarning shoxobchalari bo'lmagan edi, degan fikrga kelish mumkin.²

Aytm san'atining murakkab va mukammal namunalari maqom ashulalaridir. Shu sababli, ularni kuylash uchun maxsus amaliy malaka va ijroviy mahorat talab etiladi. Bunga erishish uchun esa, musiqiy tahsilning «ustoz-shogird» an'anasi qo'llanib kelingan. Ushbu an'anaga binoan, maqomchi ustoz o'z san'atini o'rgatish va shu tariqa meros qoldirish yo'lida o'ziga qobiliyatli shogird tanlagan. Shogird ustozning maqom ashulachiligi bobidagi mahoratini ko'p yillar (7-10, hatto 10-15 yil) davomida bosqichma-bosqich egallab borgan. Bu jarayonda nota yozuvlari kam ahamiyatli bo'lib, shogirdlar ustozlarining namunaviy ijrolarini, asosan «tinglash, idrok etish» bilan xotiralariga muhrlaganlar va maxsus mashqlar orqali ularni amaliy o'zlashtirib borganlar. Shuningdek, maqom ashulalarida qo'llangan aruz vaznidagi ko'plab she'riyat (Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab va boshqalar ijodi) namunalari yod olishlari lozim edi. Bundan tashqari, jo'rnavoz cholg'ular qatorida doira usullarini hamda tanbur ijrochiligini zaruriy darajada o'zlashtirganlar.

Buxoro maqomlarining «Nasr» nomli aytim yo'llari (yoki ashula bo'limlari) ikki guruhdan iborat ashula turkumlariga bo'linadi. Birinchi guruhning tarkibi, odatda, «Saraxbor», «Talqin», «Nasr» deb nomlanuvchi asosiy aytim yo'llari hamda ularning taronalari va yakuniy «Ufar» ashula qismlaridan tashkil topadi. Mazkur sho'balalar turkumini quyidagicha tasvirlash mumkin.

1. «Saraxbor» (bosh xabarlar, bosh mavzu) Tarona
2. «Talqin» (pand-nasihat, maslahat) Tarona
3. «Nasr» (ko'mak, zafar, g'alaba) Tarona
4. «Ufar».³

Ma'lumki, «Nasr» atamasi Shashmaqomning aytim (sho'ba) yo'llari uchun berilgan umumiy nom bo'lib, hozirga qadar bu arabcha so'zning serqirra ma'nolari (proza, ko'mak, zafar, g'alaba) qay jihatlari bilan sho'balarga ko'proq darajada aloqador ekanligi xususida bir to'xtamga kelinmagan. Ammo bu masalaga tasavvuf kesimida yondashilishi o'laroq atamaning

² Rajabov I. Maqomlar. Toshkent. 2006. 181-bet.

³ Ibrohimov O. Maqom asoslari. Toshkent. 2018. 55-bet.

«ko'mak» va, ayniqsa, «zafar», «g'alaba» ma'nolari Shashmaqom tizimida in'ikos etilayotgan g'oya mazmuniga nihoyatda muvofiq ko'rinadi. Shashmaqomdagi har bir maqomda dastlab «Mushkilot» bo'limi sadolanib, so'ngra «Nasr» bo'limiga o'tilish tartibini «qiyinchiliklarni yengish orqali (ruhiy) g'alabaga erishish», tarzida talqin etish mumkin.

Shashmaqom aytim yo'llarining «Nasr» deb nomlanishiga sabab, bu bo'limdagi asosiy aytim (sho'ba) va aytimlar turkumida «g'alaba» g'oyasining muhim o'rin tutishi hisoblanadi.

Shashmaqomdagi «Saraxbor», «Talqin» va «Nasr» aytim yo'llari turlicha doira usullarida ijro etilarkan, ularning biridan ikkinchisiga mantiqiy bog'lanishida taronalar «ko'prik» bo'lib xizmat qiladi.⁴

Taronalarning asosiy vazifalari quyidagilar:

- Ikkita asosiy sho'bani bir-biriga bog'lash;
- Sho'balar orasida ohang jihatdan contrast hosil qilish;
- Yetakchi bo'lgan hofizga dam berish;

Masalan, «Saraxbor» ashula yo'li ijro etilgach, unga ulanib, taronalari kuylana boshlaydi. So'nggi tarona yakunida «Suporish»⁵ nomi bilan ma'lum kuy tuzilmasi namoyon bo'ladi va uning vositasida keyingi asosiy ashula qismi – talqinga o'tiladi. Bunda «Suporish» tuzilmasi orqali yangi ashulani (ya'ni, talqinni) kuylashga zamin hozirlanadi, ya'ni Suporish davomida «Talqin» ashulasining doira usuli o'z aksini topadi hamda kuyning tayanch pardalari belgilanadi.

Talqindan «Nasr» ashulasiga o'tish ham shu tariqa amalga oshadi, ya'ni bunda ham «Taronasuporish» vositasi qo'llaniladi. Shuni ham aytish kerakki, «Saraxbor», «Talqin», «Nasr»lar yirik hajmli ashula yo'llari bo'lgani holda, ularning orasida bog'lovchi tarzida keluvchi taronalar nisbatan o'rta va kichik hajmli, ko'proq ruboiylar bilan aytiladigan ashulalardir. Birinchi guruh ashulalar turkumi «Ufar» va uning yakunida namoyon bo'luvchi «Suporish» bilan o'z nihoyasiga yetadi.

Shashmaqomning ashula bo'limi asosiy sho'balari tarkibiy tuzilishi "Sho'ba shakli"ga asoslanadi. Sho'ba shakli tuzilishini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- ❖ Dastlab kirish qismi bo'lgan cholg'u muqaddima kuyi yangraydi;
- ❖ Hofiz she'r asosida ashula ayta boshlagan vaqtdan e'tiboran **daromad** qismi boshlanadi. Odatda, daromad bir xat, ya'ni bir she'riy bayt (ikki misra), ba'zan esa ikki bayt (to'rt misra) asosida o'qiladi. Shuningdek, unda unli harflar («o», «a») va undovli-undalma («yorey», «voyey», «jonimey» va hokazo)lar bilan aytiladigan ohanglar namoyon bo'lishi mumkin;
- ❖ **Miyonxat** – ashula kuyining o'rta pardalarida (dastlabki tayanch pardadan kvarta, ba'zan kvinta yuqorilab) davom ettirilishini, rivojlantirilishini anglatadi;
- ❖ **Dunasr** – dastlabki daromad kuyini yuqori pardalarda (odatda, bir oktava yuqorilab) kuylash (aytish)da davom etish;
- ❖ **Avj** – maqom ashulasining eng yuqori pardalarda aytiladigan muhim cho'qqi qismi. Bunda o'zga kuy yoki ashula bo'laklari qo'llaniladi. Odatda, bunday «yangi» kuy tuzilmalari maqom ashula yo'llariga oid boshqa qismlardan olinib, ijro etilayotgan «Saraxbor» namunasining doira usuliga muvofiqlashtirilgan holda aytiladi. Bu hol maqomchilikda «**namud**» (fors-toj. – ko'rinish, namoyon bo'lish ma'nosida) deb yuritiladi. Maqomdon olim Is'hoq Rajabovning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, Shashmaqom tizimida 8 ta asosiy namud va 2 ta namud vazifasini bajaruvchi avj («Turk avji» va «Zebo Pari avji») qo'llaniladi. Bunda, namud sifatida qo'llangan kuy tuzilmasi o'zining kelib chiqish manbasiga ko'ra nom oladi. Masalan, «Segoh» maqomining kuy tuzilmasi qo'llangan bo'lsa, u «Segoh namudi» (yoki

⁴ Ibrohimov O. Maqom asoslari. Toshkent. 2018. 56-bet.

⁵ Fors. Topshiriq, havola

«Namudi Segoh»), «Navo» maqomining «Bayot» sho'basidan kuy tuzilmasi qo'llangan bo'lsa – «Bayot namudi», «Buzruk» maqomining «Uzzol» kuyidan parcha bo'lsa – «Uzzol namudi» kabi ataladi. Namudni qo'llash uchun esa, ijro etilayotgan sho'baning dastlabki kuy mavzuyi daromad – miyonxat – dunsrlar yetarli darajada rivoj topgan bo'lishi kerak. Ba'zan istisnolar ham uchraydi. Masalan, «Saraxbori Navo»ning bosh mavzuyi muqaddima va daromadda bayon etilgach, miyonxat (II xat) mobaynida nafaqat o'rta pardalarda rivojlanadi, balki oktava yuqoriligidagi pardalarni ham «zabt» etadi (notalar ilovasidagi «Saraxbori Navo»ga qarang). Shu boisdan mavzuni dunsrda rivojlantirishga ehtiyoj qolmaydi hamda III xat o'rnida «Oraz namudi» kelib, u IV xatda «Navo namudi»ga ulanib ketadi;

- ❖ **Tushirim** (yoki Furovard), ya'ni avjdan so'ng ashula kuyining dastlabki tayanch pardasiga qaytib, yakunlanish qismidir.⁶

Sho'balarning tarkibiy tuzilishidagi ushbu qismlar rasman "Xat" deyiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Dilshod, K. (2023, April). O 'ZBEK KINOFILMLARIDA MILLIY MUSIQALARDAN FOYDALANISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 4-6).
2. Karimov, D. (2023, April). Muvaffaqiyat Yo 'Lim: Unda Topganlarim Va Yo 'Qotganlarim. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 6-8).
3. Наримова, Г. А., Сиддикова, Н., & Саматова, Г. (2015). Различные подходы в преподавании иностранного языка студентам в неязыковых вузах. Научный альманах, (11-2), 292-296.
4. Bahadirov, N. ., Karimov, D. ., & Shukurjonova, X. . (2024). KOMPOZITOR REFAT IBADLAYEV . *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(6), 72–79. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/30166>
5. Наил , Б., Каримов, Д. ., & Шукуржонова, Х. . (2024). АРТУРО ТОСКАНИНИ . *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(6), 65–71. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/30160>
6. Bebetova , M. ., & Karimov , D. . (2024). DUTORCHI SOZANDALAR IJODIGA BIR NAZAR. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(17), 28–30. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/40804>
7. Djurayev, M., & Husenov, J. (2022). STUDIES IN GEOGRAPHY, CONFLICTS AND SOLUTIONS IN APPLIED GEOGRAPHY. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(01), 24-28.

⁶ Ibrohimov O. Maqom asoslari. Toshkent. 2018. 59-bet.